

## ALOHIDA EHTIYOJDA EGA BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH, TA'LIM SHAROITINI YARATISH VA INKLUZIV TA'LIMGA JALB ETISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

Ibragimova Iroda Nurbek qizi

O'zMPU logopediya yo'nalishi 2-bosqish talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur matnda O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim siyosatining mazmuni, uning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik-psixologik yondashuvlar yoritilgan. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, jumladan, nogironligi bo'lgan, yetim, maxsus ehtiyojga ega hamda rivojlanishida turli xildagi nuqsonlar mavjud bo'lgan bolalarga sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda teng sharoitda ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, Meynstriling, Integratsiya, Inklyuzivlik.

**Abstract:** This text discusses the content of the inclusive education policy for children with disabilities in the Republic of Uzbekistan, its main goals and objectives, as well as the pedagogical and psychological approaches in organizing the educational process. Inclusive education aims to provide all children, including those with disabilities, orphans, children with special needs, and those with various developmental impairments, with the opportunity to receive education alongside their healthy peers in equal conditions.

**Key words:** Inclusive education, Mainstreaming, Integration, Inclusivity.

**Аннотация:** Этот текст освещает содержание политики инклюзивного образования для детей с ограниченными возможностями в Республике Узбекистан, ее основные цели и задачи, а также педагогические и психологические подходы в организации образовательного процесса. Инклюзивное образование направлено на создание условий для получения образования всеми детьми, включая детей с инвалидностью, сирот, детей с особыми потребностями и с различными нарушениями развития, наравне с их здоровыми сверстниками.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, мейнстриминг, интеграция, инклюзивность.

Inklyuziv ta'lim- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual farqliligini inobatga olgan imkoniyatlarning holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi.

Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi.

Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'yamaydi.

Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi. Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson manfaatlari, ayniqsa, kelajak avlod – yoshlar tarbiyasi va ularning jamiyatda munosib o'rin egallashi masalasi turishi juda muhim va dolzarbdir. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar, ya'ni rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj farzandlarga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor tahsinga loyiq.

Inklyuziv ta'lim tizimi orqali bunday bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan bir makonda tarbiyalash, o'qitish va ijtimoiy hayotga moslashtirish – nafaqat ularning shaxsiy taraqqiyotiga, balki butun jamiyat madaniyati va insonparvarlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Menimcha, bu yo'nalishdagi ishlar hozirgi kunda juda dolzarb bo'lib, ular orqali ko'plab oilalar farzandlarini jamiyatda o'z o'rnini topishiga, ularning baxtli hayot kechirishiga zamin yaratilmoqda.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan.

Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)- bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi

bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2007 yilda «O'zbekistonda inklyuziv ta'lim» loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, loyihada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko'mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O'zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta'lim-tarbiya olishdi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda.

Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi.

Shunisi borki, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi.

U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari

erka o‘stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta‘lim amaliyoti va ta‘lim xizmatlarini tashkillashtirishda o‘zgarishlar qilishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta‘lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas‘uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.

Inklyuziv ta‘lim mazmuni va mohiyati-inklyuziv ta‘limning turli xil extiyojli bolalarni ta‘lim olishini qo‘llaydi, va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi xayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta‘lim bu davlat siyosati bo‘lib nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muxtoj, tarbiyasi og‘ir, etim bolalar, og‘ir kasallangan bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir va barcha bolalarni teng ko‘rishni ko‘zda tutadigan ta‘lim.

Ya‘ni millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, manbai, moddiy va ma‘naviy axvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo‘lishidan qat‘iy nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko‘zda tutadigan ta‘limdir. Inklyuziv ta‘lim umumta‘lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo‘lgan ta‘limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘lim olishiga oid qo‘shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta‘lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta‘lim har xil extiyojli bolalarning ta‘lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta‘lim turli extiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta‘limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta‘limni tadbiq etishda dars berish, o‘qitish bir muncha samarali va unumli bo‘lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta‘lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaxolangki ular uqitilmasaham).

Bunday yondashuv diskriminasiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o‘qitilish jarayonida turli extiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar. Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta‘limning ta‘siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi.

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta‘lim muassasalariga nisbatan maxsus segregasion ta‘lim muassasalarida ta‘lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqiyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e‘tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta‘lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta‘lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarning extiyojlarini umumta‘lim muassasalarida qondirib bo‘lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan.

Inklyuziv ta‘lim turli ehtiyojlarga ega bolalarning ta‘lim olishlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ularga yutuqqa erishish va yaxshi hayot qurish imkoniyatlarini yaratadi.

Inklyuziv ta'lim, davlat siyosati sifatida, nogironlik yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj bolalar, tarbiyasi og'ir bolalar, yetim bolalar, og'ir kasallangan bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimidir. Bu tizim barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash va rivojlantirishni maqsad qiladi. Inklyuziv ta'lim millat, irq, tananing rangi, ijtimoiy kelib chiqish, oilaning jamiyatdagi o'rnini, moddiy va ma'naviy holat yoki jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarga qaramay, barcha bolalarni teng qabul qiladi.

Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni me'yorda rivojlanishidagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim - tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tibor etilgan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishligi aniqlandi. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: "Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega" ("Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya, 3-modda).

Xulosa: Inklyuziv ta'limni joriy qilish O'zbekistonda juda muhim qadam hisoblanadi. Bu faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki butun ta'lim tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Menimcha, inklyuziv ta'lim har bir bolaga, uning jismoniy yoki ruhiy holatidan qat'iy nazar, teng imkoniyatlar yaratadi va ularga bilim olish va ijtimoiylashish uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ayniqsa, inklyuziv ta'lim bolalarga nafaqat ta'lim jarayonida, balki atrofdagi muhitga moslashish, o'z qobiliyatlariga ishonchni orttirish va faol hayot pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun inklyuziv ta'lim jamiyatda turli xillikni qadrlaydigan va har bir insonning potentsialini rivojlantirishga yordam beruvchi jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

#### ISHLATILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inklyuziv ta'lim. Gospital Pedagogika (U.U. Turamuratov, Z.M. Qurbonova, O.K. Mamatmurotov, A.E. Oltiboyev, S.E. Zaripova) 2024

2. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika (F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA)  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI - 2022



3. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish xususiyatlari  
(Nodira Bahodir qizi Saidova) 2023
4. Inklyuziv Ta'lim(Z.N.Mamarajabova)